

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–sentyabr holatiga

RAOAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1009** taga o'sdi
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **5,2%** foizni tashkil etdi
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1025** taga oshgan.


2018 yilning yanvar-sentyabr oyida Namangan viloyatida 2530 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21.1 foizga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1130 ta (5,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 20961 tani tashkil etgan.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27.5 % ga oshgan hamda ularning soni 325 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahrida (37,8%), Chust tumanida (8,1%), Namangan (7,1%), To'raqo'rg'on va Uychi (6,1%) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 oktyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Namangan viloyati	22102	100	20961	100,0
Namangan shapar	8561	38,8	7969	37,84
Mingbuloq tumani	875	4,0	868	4,12
Kosonsoy tumani	1273	5,8	1228	5,83
Namangan tumani	1555	7,0	1485	7,05
Norin tumani	891	4,0	867	4,12
Pop tumani	1191	5,4	1115	5,29
To'raq'org'on tumani	1369	6,2	1284	6,10
Uychi tumani	1300	5,9	1287	6,11
Uchq'org'on tumani	1093	5,0	1066	5,06
Chortoq tumani	1121	5,1	1076	5,11
Chust timani	1795	8,1	1695	8,05
Yangiq'org'on tumani	1078	4,9	1021	4,85


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,8 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5.2 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va yil boshiga nisbatan bir xil ekanligini ko'rishimiz mumkin.


2018 yil 1 oktyabr holatiga 2530 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Namangan shaxrida (873 ta), Chust (195 ta), Uychi (180 ta), To'raqo'rg'on (161 ta), Mingbuloq (151 ta), Namangan (154 ta), Uchqo'rg'on (152 ta), Norin (151 ta), Pop (132 ta), Chortoq (134 ta) Kosonsoy (131 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam esa Yangiqo'rg'on (116 ta), tumanida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (707 ta), boshqa turlarda (602 ta), savdoda (524 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (239 ta) va qurilishda (168 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (37 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (66 ta), yashash va ovqatlanishda (91 ta) hamda tashish va saqlashda (96 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsata yotgan korxonalarining ulushi savdoda (-4,2 f.p), sanoatda (-2.8 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (-3,8 f.p) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (-1,4 f.p) tashish va saqlashda (0.5 f.p dan) kamaygan, qurilishda (+1,7 f.p), boshqa turlar (+10.0 f.p) hamda axborot va aloqa (+0.4 f.p dan ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.10.2017 y.	01.10.2018 y.	farqi (+-)
Savdo	24,9	20,7	-4,2
Qurilish	5,0	6,7	1,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	13,2	9,4	-3,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,0	3,6	-1,4
Axborot va aloqa	1,1	1,5	0,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2,0	2,6	0,6
Tashish va saqlash	4,3	3,8	-0,5
Boshqa turlar	13,8	23,8	10,0
Sanoat	30,7	27,9	-2,8

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 oktyabr holatiga 17003 dan oshiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5656 ta, oilaviy korxonalar – 312 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–10198 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari–29 tani va boshqa tijorat korxonalar 808 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 124 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 taga yoki 31.9 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 88 tasi qo'shma korxonalar, 36 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar 132 tani tashkil etib ularning asosiy qismi Namangan shahar 52 ta (39,4%), Uychi tumanida 11 ta (8,3%), Kosonsoy tumanida 10 ta (7,6%), Chortoq tumanida 10 ta (7,6%), To'raqo'rg'on tumanida 9 tadan (6,8%), Namangan tumanida 6 ta (4,5%), Chust tumanida 9 ta (6,8%), Norin, va Yangiqo'rg'on tumanlarida 5 tadan (3,8%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Uchqo'rg'on tumanida 4 ta (3,0%), 2 ta (1,5%) Mingbuloq tumani hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 86 ta (69,4%), savdoda 14 ta (10,5%), boshqa turlarida esa 9 ta (7,3%) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqada 1 ta (0,8%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (4,0%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 6 ta (4,8%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta (2,4%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlash faoliyat turiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-sentyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 29 tani tashkil qilgan. Bu korxonalar Namangan shahar, Kasonsoy, Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida ro'yhatdan o'tganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 16 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16898 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 5,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6886 tasi (40,8 %) Namangan shahriga, 1370 tasi (8,1 %) Chust tumaniga, 1259 tasi (7,5 %) Namangan tumaniga, 1030 tasi (6,1 %) Uychi tumaniga hamda 1004 tasi (5,9 %) To'raqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16898 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4891 tasi (28,8%)—savdoda, 4152 tasi (24,6 %) - sanoatda, 1501 tasi (8,9 %) - qurilishda, 1516 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 830 tasi (4,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 753 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 301 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, 398 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2582 tasi (15,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 2307 taga kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 18,7 foizga ko'p. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida (822 ta), Chust (177 ta), Uychi (169 ta), Namangan (140 ta) To'raqo'rg'on tumanlarida (150 tadan) tashkil etilgan. Eng kam Yangiq'org'on (104 ta), Chortoq (117 ta), Pop (114 ta), Kosonsoy (118 ta) hamda Mingbuloq tumanlarida (124 ta) tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (707 ta), savdoda (524 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (237 ta) va qurilishda (168 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa yashash ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (91 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (66 ta) hamda axborot va aloqada (37 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,3 % savdoda, 20,0 % sanoatda, 7,2 % qurilish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 317 tani tashkil etib, ulardan 312 tasi yoki 98,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 34.5 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 49,4 % yoki 154 tasi sanoat, 16,3 % yoki 51 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,9 % yoki 37 tasi savdo, 9,6 % yoki 30 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,6 % yoki 2 tasi qurilish, 1,3 % yoki 4 tasi axborot va aloqa, 1,9 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,0 % yoki 28 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **A.Siddiqov**
(0369) 227-84-96